UO‘K 297:329.36:323.2

“HIZB UT-TAHRIR” UYUSHMASINING G‘OYAVIY ILDIZLARI VA YUZAGA KELISH SABABLARI

F.Y. Elmirzayev

Maqolada XX asrda musulmon olamidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Taqiyuddin Nabahoniy boshchiligida “Hizb ut-tahrir” uyushmasining shakllanishi, maqsad va iddaolari, g‘oyaviy ildizlari, yuzaga kelish sabablari, hamda uning faoliyat uslublari, kuch va ta’sir etish vositalari haqida ma’lumot berilgan. Uyushmaning tuzilmasi, moliyaviy asosi, guruhlar tuzish va o‘z maqsadlarini targ‘ibot qilish yo‘llari o‘rganilgan. Shu bilan birga uyushmaning MDH davlatlarida olib borgan faoliyati ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *xalifalik, jihod, mafkura, panislomizm, fatvo, kibermakon, “Musulmon birodarlar”, hokimiyat, kufr, jamoat, ijtimoiy tarmoq.*

В статье описывается общественно-политическая ситуация мусульманского мира в XX веке, освещается идеологические корни и причины возникновения группировки “Хизб ут-Тахрир” под руководством Такиюддина Набахани, его формирование, цели и притязанность, деятельность, силы и средства. Также рассматриваются структура организации, финансовая основа, способы организации групп и продвижения ее целей. В то же время была также освещена деятельность ассоциации в зарубежных странах, а также в России и странах СНГ.

Ключевые слова: *халифат, джихад, идеология, панисламизм, фетва, киберпространство, “Братья-мусульмане”, правительство, неверие, сообщество, социальная сеть.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1947-yil 29-noyabrdagi 181-sonli qarorida Britaniyaning mandati ostida bo‘lgan Falastinda mustaqil yahudiy va arab davlatlari, Quddusda uning mandatidagi hudud tuzilishi haqida qaror qabul qilindi. Shu sabab 1947–1948-yillarda qarordan norozi bo‘lgan olti arab davlatining norasmiy arab qurolli tuzilmalari hamda yangi tuzilgan Isroil o‘rtasida dastlabki urush bo‘lib o‘tadi. Urush arab mamlakatlarining mag‘lubiyati va BMTning yuqoridagi qaroriga asosan yangi arab davlatiga tegishli bo‘lgan katta hudud Isroil nazoratiga o‘tishi bilan yakun topadi, u yerda istiqomat qilgan 600 mingdan ziyod arab aholisi esa qochqin-muhojir sifatida yerlarini tark etadi. Falastinda arablar tomonidan mustaqil arab davlati qurish imkonlarini izlash choralari, yahudiylar va G‘arb mamlakatlariga nisbatan qarshiliklar, yahudiylar tarafidan esa arab hukumatlari ustidan noroziliklar kuchayishi yuzaga kelgan edi.

Mazkur jarayonlar ta’sirida Taqiyuddin Nabahoniy 1950-yilda arab millatchiligi ruhidagi “Risolat ul-arab” risolasini yozadi, unda islom dunyosidagi oliy tabaqa sifatida arablarni e’tirof etadi. Risolaning asosiy g‘oyasi etib arab mamlakatlarini birlashtirish natijasida xalifat qurishni, keyinchalik unga boshqa davlatlarni qo‘shish g‘oyasini ilgari suradi. Ta’kidlash joizki, T.Nabahoniyning rahnamosi – Quddus muftiysi Amin al-Husayn kelishmovchiliklar davomida yahudiylarga qarshi “muqaddas urush”, ya’ni qurolli jihod e’lon qilgan edi [2]. Urush arablar ichida “naqba” (arab. – halokat) deb nom olgan.

U davrda T.Nabahoniy Iordaniyadagi “Musulmon birodarlar” tashkiloti bo‘linmasi rahbarlaridan biri bo‘lib, tashkilotni G‘arbga nisbatan “yumshoq siyosat” olib borishda ayblab, uni tark etgan va o‘zining “Hizb ut-tahrir” partiyasini tuzgan va 1977-yilgacha rahbarlik qilgan [1]. Bundan tashqari T.Nabahoniy uyushmani tashkil qilguncha Falastin konstitutsion sudi sudyasi, din ulamosi kengashi a’zosi sifatida tanilgan shaxs edi. T.Nabahoniy vafotidan so‘ng bu partiyaga falastinlik Abu Yusuf Abdulqadim Zallum, 2003-yildan Ato Abu Rushta (Abu Yosin) rahbarlik qilgan. Hozirgi kunga kelib, ushbu uyush-

ma dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida o‘z faoliyatini olib boradi va uning a’zolari 30-35 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Uyushmaning to‘liq nomi “Hizb ut-tahrir al-Islomiy” deb nomlanib, arab tilidan tarjima qilinganda “Islomni ozod qilish partiyasi” ma’nosini bildiradi [14].

“Hizb ut-tahrir”ning diniy-siyosiy mafkurasi panislomizm g‘oyalariga asoslanadi, uning faoliyati musulmon mamlakatlarida dunyoviy davlatni ag‘darish hamda hokimiyatni egallash hisoblanadi. Bunga dalil sifatida e’lon qilingan bosh maqsad – oldin arab mamlakatlarida, keyin esa boshqa mamlakatlarda islomiy tizimning joriy etilishini hamda islomiy davlat – xalifalikni yaratishdan iborat ekanini ko‘rsatish mumkin. Partiya mafkurasida u “ruhiy, ilmiy, ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi uyushma emas, islomiy fikrat asosiga qurilgan siyosiy uyushma ekani”, faoliyati esa xayriya, diniy yoki ma’rifiy emas, balki siyosiy sohaligi ochiq ta’kidlanadi. Shunga ko‘ra, “hizbchilar” siyosatdonlikka o‘rgatiladigan, dinga muxolif jamoa sanaladi [3].

T.Nabahoniy va partiyaning ikkinchi yetakchisi bo‘lgan Abdulqadim Zallum “Islom nizomi”, “Xalifalik”, “Islomiy olamga qaynoq nidolar”, “Hizb ut-tahrir tushunchalari”, “Islomda boshqaruv nizomi”, “Demokratiya kufr nizomi” kabi qator kitoblarda dunyoviy davlat, demokratiya, konstitutsiya, saylov kabi siyosiy institutlar, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik burchlari qoralanadi. Xususan, demokratiya va inson erkinligi ular nazdida “kufr dunyoqarashi va nizomi”, “uni qabul qilish, unga da’vat qilish, u asosida partiya tuzish harom” deb e’lon qilinadi. Vatandoshlik va vatanparvarlik islomga yot “tuban aloqa”, islomiy davlat qurishdan chalg‘ituvchi nojoiz amallar sifatida baholanadi.

“Hizb ut-tahrir” uyushmasi siyosiy hokimiyatni uch bosqichda (hizbiy uyushmani shakllantirish; ummatga ta’sir o‘tkazish; boshqaruvni qo‘lga olish) egallab olishni, keyinchalik “butun olamga risolat sifatida da’vat va jihod yo‘lini” singdirishni da’vo qiladi, go‘yoki kelajakda barpo etiladigan xalifalik davlatida islom aqidasidan boshqa negizga asoslangan harakat, uyushma va partiyalar rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta’kidlaydi. Dastavval partiya tomonidan arab dunyosidagi “xalifalik” davrini 13 yilda joriy etish rejasi ilgari surilgan. Bu reja muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so‘ng, partiya rahbariyati tomonidan “xalifalik” qurish 33 yilga, keyinchalik esa aniq belgilanmagan muddatda amalga oshirilishi e’tirof etilgan.

“Hizb ut-tahrir” piramida shaklida, mustahkam intizom va maxfiylik joriy qilingan tuzilmadan iborat. Uning iyerarxiyasida eng quyi qatlamni yangi a’zolar egallaydi, undan yuqorida a’zolar, birlamchi bo‘g‘in va eng yuqorida “qiyodat” deb nomlangan qatlam joy olgan. Bunda “qiyodat” Bosh amir huzuridagi “qonun chiqaruvchi organ” sifatida faoliyat yuritadi, keyingi o‘rinda birlamchi bo‘g‘in – 5-10 kishidan iborat bo‘lgan, buyruqlarning bajarilishini ta’minlovchi “halqa” joy olgan, eng quyida esa a’zolar va yangi qo‘shilgan a’zolar – buyruq va vazifalarni “bajaruvchilar” deb qabul qilingan. Tashkilotga yangi a’zo bo‘lganlar “xalifalik davlati barpo qilishga, ushbu yo‘lda jonni qurbon qilib, yaqinlaridan kechib bo‘lsa ham harakat qilishga va’da beraman” ma’nosida qasamyod qilganlar, shu bilan ular uyushmaning mutaassib, shaxs va jamiyat manfaatlariga zid yo‘llar orqali o‘z maqsadlariga yetishini aks ettirganlar.

Tashkilotning moliyaviy asosini maxsus g‘azna – “tabarro‘” tashkil etib, u firqa a’zolari to‘laydigan badal puli hisobiga to‘plangan, mahalliy bo‘linma rahbarlari maoshi shu “g‘aznadan” to‘lab borilgan.

Targ‘ibot-tashviqot ishlari yashirin ijtimoiy tarmoqlarda virtual jamoatlar tashkil etish, internet tarmog‘ida tashkilotning diniy-siyosiy g‘oyalarini targ‘ib qilish, “hujra”larda diniy o‘qishlar, jamoat joylarida partiya g‘oyalari yoritilgan “Al-Va’y” jurnali va varaqalar tarqatish usullari orqali amalga oshirilgan, davlat idoralari tomonidan jiddiy qarshilik bo‘lmagan mamlakatlarda partiya faollari masjidlarda va boshqa turli yig‘inlarda ochiq-oydin targ‘ibot olib borganlar.

“Hizb ut-tahrir”ga tegishli kitoblarda go‘yoki jihod – “namoz farzligi kabi farz” amal sanalib, birorta musulmondan soqit bo‘lmasligi, “islom davlati doimo jihod holatida”, islom ummatida “kofirlarga qarshi ular kofir bo‘lgani uchun jang qilish”, “ular kalima keltirmagunlaricha yoki jizya to‘lamagunlaricha urush olib borish yuklangan” deb da’vo qilinadi [7]. Barcha musulmon mamlakatlari g‘ayriislomiy “kufrda” ayblanib, ular ta’kidlashi bo‘yicha, vatanparvarlik islomda mazhablarga ergashish, ya’ni harom hisoblanadi [5].

Shuningdek, “Hizb ut-tahrirning o‘zgarishdagi manxaji” kitobida islom dinidan boshqa din-

ga e’tiqod qiluvchilarning barchasini, jumladan, yahudiy va nasroniylarni kofir deb e’lon qilganlar (12, B. 44-45). Vaholanki, islom dini keng tarqalgan davrlarda musulmonlar o‘zlari bilan birga yashovchi boshqa din vakillarining ozodligi, fikr, e’tiqod erkinliklari, jon, mol, obro‘ daxlsizligini o‘z zimmalariga olganlari uchun ularni “zimmiy” deb ataganlar. Islom dini avvalgi nozil bo‘lgan muqaddas kitoblarga ishonish imonning sharti deb biladi (“Baqara” surasi, 136-oyat). Hadisda (Imom Buxoriy, 3166-hadis) zimmiyni nohaq o‘ldirgan musulmon jannatga kirmasligining ta’kidlanishi islomdagi bag‘rikenglik g‘oyalarini yana bir bor tasdiqlaydi [4].

Islom dunyosi ulamolari “Hizb ut-tahrir” uyushmasi a’zolari siyosiy hokimiyatni egallashni ustuvor vazifa sifatida maqsad qilgani, qator shar’iy masalalarda islom ahkomlariga zid fatvolarni ilgari surganlari sababli qattiq tanqid qiladilar va adashgan firqa deb hisoblaydilar.

O‘zbekiston islom ulamosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Din nasihatdir” kitobida “hizbchilar”ning qabr azobiga va Masiyh Dajjolning chiqishiga e’tiqod qilishni harom deyishlarini eng xatarli xatolaridan biri sifatida baholagan: “Agar bilib turib qilingan ish bo‘lsa, Islom aqidasini buzish uchun qilingan makkorona harakatdir. Agar bilmasdan qilingan bo‘lsa, ahli sunna val-jamoa mazhabi hukmiga binoan fosiqlikdir. ...Ahli sunna val-jamoa mazhabidagi barcha musulmonlar qabr azobiga va qiyomat qoim bo‘lishiga yaqinlashganda Dajjolning chiqishiga imon keltiradilar. Bu haqiqat aqoid kitoblarimizning barchasida alohida ta’kidlangan... Aqida ilmida mutavotir va ohod hadislarda kelgan ma’noni inkor qiladigan odam kofir bo‘lib, islomdan chiqadi. Ohod hadislarda kelgan ma’noni inkor qilgan odam fosiq bo‘ladi. Shu qoidaga binoan, hizb ut-tahrir har qanday dushman qila olmaydigan zararli ishlarni qildiki, islom dushmanlari o‘zlari harakat qilsalar, hozirgi natijaga erisha olmas edilar” deb ta’kidlagan [6].

“Hizb ut-tahrir” ochiq targ‘ibotida islomiy davlat barpo etish yo‘lida kuch ishlatmaslikni yolg‘on da’vo qiladi, G‘arb mamlakatlaridagi ayrim siyosiy doiralar bunga ishonib, boshqa davlatlarda, xususan, Markaziy Osiyoda uyushmaning ekstremistik faoliyatiga qarshi ko‘rilayotgan choralarni tanqid qilib kelmoqdalar. Lekin uyushmaga tegishli bo‘lgan doktrinal adabiyotlar tahlili “Hizb ut-tahrir” yetakchilari ilgari surayotgan g‘oyalarda jihodiy-salafiy oqimlar mafkurasi, jamiyatni “kufr”da ayblash va qurolli jihodga da’vat qilish amallari mavjudligini ko‘rsatadi.

A.Zallum barcha musulmon mamlakatlarini “kufr diyori” deb atab, yanada murosasiz kurash olib borishni targ‘ib qilgan. Uning g‘oyasiga ergashmagan, dunyoviy davlat, ya’ni “din davlatdan ajratilishi lozim”, degan fikrda bo‘lgan musulmonlarni “dindan qaytgan murtad” hisoblab, “soni million-million bo‘lsa ham, har bir murtadni o‘ldirish, taqdirni hal etuvchi masala deb qarash lozim”ligini da’vat qilgan. A.Zallum islom davlati go‘yoki doimiy jihod holatida bo‘lib, Islom yer yuzini qamrab olmaguncha jihod qilish zarurligini tashviqot qilgan [9, 10, 11].

Yuqoridagi g‘oyalar bilan tarbiyalangan uyushmaning mahalliy bo‘limlari a’zolari 1968-, 1969– va 1993-yillari Iordaniyada davlat to‘ntarishiga qaratilgan jinoiy harakatlarni amalga oshirgan. 1972-yili Iroq mamlakati janubidagi “hizbchilar” uyushtirgan fitna ham bostirilgan. 2000-yili Turkiyada “Hizb ut-tahrir”ning 23 nafar a’zosi “davlat asosini buzish”ga qaratilgan harakatlari uchun sud qilingan. 1999–2000-yillarda Livan va Suriyada qurolli isyonni amalga oshirishga harakat qilgan.

2010-yil boshida arab mamlakatlarida ro‘y bergan notinchliklarda ham “Hizb ut-tahrir” rahbariyati isyonchilarni g‘oyaviy qo‘llab-quvvatlab, ularni dunyoviy davlatlarni ag‘darib, uyushma yetakchiligida xalifalik barpo etishga chaqirgan. 2012-yil 15-mart kuni uyushma tomonidan o‘zbek tilida chop etilgan varaqada Suriya armiyasi “tog‘ut hukumatini ag‘darib tashlab, boshqaruvni “Hizb ut-tahrir”ga topshirishi” da’vat qilinadi [12, 13]. Bunga uyushma bo‘limi yetakchisi Sh.Mirzajonov Toshkent shahrida “hizb ut-nusrat”, ashaddiy a’zosi Umar Bakri Muhammad Buyuk Britaniyada “Al-Muhojirun” kabi radikal tashkilotlarga asos solganliklari, “Akromiylar” tashkilotining rahbari A.Yo‘ldoshev, “Al-Qoida”ning Iroqdagi bo‘limi sobiq yetakchisi Muso Az-Zarqaviy avval “Hizb ut-tahrir” a’zosi bo‘lganligi ushbu partiya ashaddiy ekstremistlarni tarbiyalashda salmoqli o‘ringa ega ekanligiga dalil bo‘ladi.

1980-yillarning ikkinchi yarmi va 1990-yillar boshidan “Hizb ut-tahrir”ning mahalliy bo‘limlari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada, Birlashgan Arab Amirliklari, Iordaniya, Iroq, Quvayt, Livan,

Marokko, Misr, Sudan, Suriya, Turkiya, Falastin, Yamanda faol targ‘ibot ishlarini o‘tkazish orqali o‘z tarafdorlarini ko‘paytirgan. Shu davrda uyushmaning Yevropadagi faolligi Buyuk Britaniya, Daniya mamlakatlarida, Janubi-Sharqiy Osiyoda esa Bangladesh, Indoneziya, Malayziya, Pokistonda, shuningdek, Avstraliyada oshganligi kuzatilgan [13].

“Hizb ut-tahrir” faoliyati Turkiyada, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning aksar mamlakatlarida, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda noqonuniy hisoblanadi. 2003-yilda ushbu uyushma faoliyati Germaniya, Pokiston va Rossiyada ham taqiqlangan.

Uyushma Yevropa, ayniqsa, Buyuk Britaniya ilmiy doiralarida o‘zini zo‘ravonlik va qo‘poruvchilik usullarini rad etuvchi tashkilot sifatida targ‘ib qilishi keyinchalik keng faoliyat yuritishiga imkon yaratgan. Buyuk Britaniyada uyushmaga fuqarolarni yo‘llash ishlari Pokiston va Turkiyadan, Afrika qit’asidan kelgan mehnat migrantlarining birinchi va ikkinchi avlodlari, Germaniyada esa asosan turk diasporasi orasida amalga oshirilgan.

1990-yil boshidan “Hizb ut-tahrir” g‘oyalari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) hududiga kirib kela boshlagan. Dastavval uyushmaning qator bo‘linmalari Markaziy Osiyo respublikalarida vujudga kelgan. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan “hizbchilar”ning ekstremistik faoliyatiga qarshi samarali kurash olib borilishi natijasida 2000-yillarda “Hizb ut-tahrir” mintaqada mumkin qadar yashirincha harakat qilishga hamda faol targ‘ibot-tashviqot ishlarini Rossiya va Ukraina mamlakatlarida olib borishga o‘tdi. “Hizb ut-tahrir”ning MDH mamlakatlari ichida Qirg‘iziston va Ukrainada faol harakat olib borayotgani kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z hududida “Hizb ut-tahrir” uyushmasining faoliyat uslubi muayyan rivojlanishini boshdan kechirdi. Dastavval bu uyushma faoliyati yashirin guruhlar tuzish, yashirin tarzda diniy-ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatishga asoslangan bo‘lsa, 1990-yillarning ikkinchi yarmida, aholi gavjum joylarda varaqalar deyarli ochiq tarqatish, da’vatni keng olib borish, jazoni o‘tash muassasalarida targ‘ibot o‘tkazish usullari orqali davom etgan. Ta’kidlash joizki, “Hizb ut-tahrir” rahbarlari o‘sha davrda respublikadagi tashkilot a’zolari qo‘lga tushsa ozodlikdan mahrum etilishini aniq bila turib, ularga varaqalarni ochiq tarqatishni buyurgan. Ushbu faktning o‘zi oddiy “hizbchilar”ning taqdiri ularning rahnamolari uchun hech qanday qimmatga ega emasligidan dalolat beradi.

Hozirda uyushma ko‘proq mehnat migrantlari orasida, internet tizimi orqali targ‘ibot qilish, elektron nashrlardan foydalanish hamda avval diniy ekstremistik oqim faoliyatida ishtiroki uchun jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning oila a’zolari, yaqin qarindoshlarini o‘z saflariga jalb qilishga qaratilgan jinoiy harakatlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2016-yil 26-sentyabr kunidagi qaroriga muvofiq “Hizb ut-tahrir” terrorchilik tashkiloti deb tan olingan va O‘zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, garchi bu uyushma o‘ziga xos tuzilma va harakat elementlariga ega bo‘lsa-da, uning butun va to‘liq dasturi bo‘lmay, faoliyati adabiyotlarni tarqatish bilan bog‘liq. Bu esa uyushma siyosiy olamdan yiroq ekanligini, u bilan munozara olib borishga asos yo‘qligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. *Зейно Баран.* Хизб ут-тахрир. Политическая радикализация ислама. – Вашингтон: Центр Никсона, 2004. – 134 б.

2. Арабско-Израильская война (1947–1949) [Online]. // Сайт “Википедия”. URL: www.ru.wikipediaorg/wiki/арабского-израильская-война.

3. *Ҳасанбаев Ў.* Диний-маърифий ва ижтимоий-маънавий соҳа тарғиботчилари учун айрим атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Shamsuddin Boboxonov NMIU, 2020. – 607 б.

4. *Набаҳоний Т.* Ҳизб ут-таҳрир тушунчалари. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 2004. – 52 б.

5. Ҳизб ут-таҳрирнинг ўзгаришдаги манҳажи. 22.12.1989 да Американинг Миссури штатида чиқарилган “Мусулмон талабалар робитаси” қурултойида “Ҳизб ут-таҳрир” вакили сўзлаган нутқнинг матни. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 1992. – 62 б.

6. *Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф.* Дин насиҳатдир. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 176 б.
7. *Набаҳоний Т.* Ислом низоми. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 1953. – 108 б.
8. *Набаҳоний Т.* Сиёсий қарашлар. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 2004. – 151 б.
9. *Заллум А.* Исломда бошқарув низоми. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 1996. – 187 б.
10. *Заллум А.* Демократия куфр низоми. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 1996. – 34 б.
11. *Заллум А.* Халифалик қандай тугатилди. – Қоҳира, “Hizb ut-tahrir”, 1996. – 142 б.
12. “Ҳизб ут-таҳрир”. Сурия вилояти. “Суриядаги аҳлимизга, уламоларига, у ердаги қувват аҳлига ва бутун Исломий Умматга қизғин нидо”. – “Hizb ut-tahrir”, 15 март 2012 йил. – 30 б.
13. “Бизда “ҳизб ут-таҳрир” аъзоларининг сони 20.000 га етиб қолди”. “Би-би-си” сайти, 14.05.2013 www.bbc.co.uk/central asia/2013/05/130514 hizbut tahrir members in Kyrgyzstan latest. shtl.
14. *Викторов В.П.* Исламская партия “Хизб-ут тахрир” и ее деятельность в России и за рубежом // Позиции философии в современном обществе. Материалы всероссийской научной конференции. Екатеринбург, 19–20 мая 2010 г. – Екатеринбург, 2010. – С. 104–109.

THE IDEOLOGICAL ROOTS OF THE HIZB UT-TAHRIR GROUP, THE CAUSES OF ITS EMERGENCE AND REACTIONARY NATURE

Farrux, Y. Elmirzaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 15-20.

[1]Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, 100029, city Tashkent, st. Yunus Razhabiy, 1, (Uzbekistan). E-mail: info@iiv.uz

Key words: *caliphate, jihad, ideology, pan-Islamism, fatwa, cyberspace, Muslim Brotherhood, government, disbelief, community, social network, power and means.*

This article describes the socio-political situation of the Muslim world in the twentieth century, highlights the ideological roots and causes of the Hizb ut-Tahrir group under the leadership of Takiyuddin Nabakhani, its formation, goals and pretensions, activities, forces and means. The structure of the organization, the financial basis, ways of organizing groups and promoting its goals are also considered. At the same time, the activities of the association in foreign countries, as well as in Russia and CIS countries were also highlighted. This article also provides information about the organizers of the “Hizb ut-Tahrir”, whose erroneous ideologies are cited as evidence of the inappropriate activities of this group. The main goal of the leaders of the group was to establish an Islamic state in the world and brought up the members of the group allegedly with “Islamic rules”, i.e. misinterpreted the basics of Islam. The leaders of “Hizb ut-Tahrir” firmly established their positions that ordinary members of the group had no right to rise up, but were forced to act according to instructions. In open propaganda, Hizb ut-Tahrir declares the use of force on the way to the creation of an Islamic state. During the riots that occurred in Arab countries in early 2010, the leadership of Hizb ut-Tahrir ideologically supported the rebels, calling on them to overthrow secular states and establish a caliphate in the leadership of the association, which is why its activities are considered illegal in Turkey, most countries of the Middle East and North Africa, Tajikistan, Kazakhstan and Kyrgyzstan, Uzbekistan. In 2003, this association was also banned by law in Germany, Pakistan and Russia. In 1990, the group began its activities in the CIS countries and in Central Asia. Thanks to the anti-extremist struggle on the part of the leaders of the states, by 2000 their activity had somewhat decreased, but secret movements of the members of the group were noted. They continue their activities in the form of distribu-

ting extremist leaflets, attracting people on social networks, promising high-paying jobs. Currently, they are trying to attract migrants, their relatives, relatives of former members of the group to their group. Based on the above, it can be concluded that, although this association has its own structure and elements of action, without its entire and complete program, its activities have become associated with the distribution of literature. This suggests that the association is far from the political world, there is no reason to conduct a discussion with it.

References:

1. *Zeyno Baran* (2004). Hizb ut-tahrir. Politicheskaya radikalizaciya islama [Hizb ut-tahrir. Political radicalization of Islam]. Vashington: Centr Niksona.

2. *Arabsko-Izrailskaya voyna* (1947–1949) [Arab-Israeli War (1947–1949)]. [Online]. URL: www.ru.wikipediaorg/wiki/arabsko-izrailskayavoynavojna

3. *Hasanbaev, O'.* (2020). Diniy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'naviy soha targ'ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug'ati [Explanatory dictionary of some terms and concepts for religious-educational and social-spiritual field promoters]. Tashkent: Shamsuddin Boboxonov NMIU.

4. *Nabahoniy, T.* (1996). Hizb ut-tahrir tushunchalari [Concepts of Hizb ut-Tahrir]. Qohira: Hizb ut-tahrir.

5. (1996) Hizb ut-Tahrirning o'zgarishdagi manxaji 22.12.1989da Amerikaning Missuri shtatida chaqirilgan "musulmon talabalar robitasi" qurultoyida "Hizb ut-tahrir" vakili so'zlagan nutqning matni [Hizb ut-Tahrir's changing agenda is the text of a speech delivered by a representative of Hizb ut-Tahrir at the "Muslim Student Union" conference in Missouri, USA]. Qohira: Hizb ut-tahrir.

6. *Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.* (2006). Din nasihatdir [Religion is advice]. Tashkent: Sharq.

7. *Nabahoniy,* T. (1953) Islom nizomi [Islamic law]. Qohira: Hizb ut-tahrir.

8. *Nabahoniy,* T. (2004) Siyosiy qarashlar [Political views]. Qohira: Hizb ut-tahrir.

9. *Zallum, A.* (1996) Islomda boshqaruv nizomi. [Governance in Islam]. Qohira: Hizb ut-tahrir.

10. *Zallum, A*. (1996) Demokratiya kufr nizomi. [Democracy is a blasphemous statute]. Qohira: "Hizb ut-tahrir".

11. *Zallum, A.* (1996) Xalifalik qanday tugatildi [How the Caliphate ended]. Qohira: "Hizb ut-tahrir".

12. *"Hizb ut-tahrir".* Suriya viloyati. (2012) "Suriyadagi ahlimizga, ulamolariga, u erdagi quvvat ahliga va butun Islomiy ummatga qizg'in nido" ["Hizb ut-Tahrir". Syrian region. "An ardent call to our people in Syria, to the scholars, to the people of power there and to the entire Islamic Ummah"]. Qohira: "Hizb ut-tahrir".

13. (2013) "Bizda "Hizb ut-tahrir" a'zolarining soni 20000 ga yetib qoldi". "Bi-bi-si" sayti, 14.05.2013. [Online]. URL: www.bbc.co.uk/central asia/2013/05/130514 hizbut tahrir members in Kyrgyzstan latest.shtl..

14. *Viktorov, V.P.* (2010) Islamskaya partiya "Hizb-ut tahrir" i ee deyatel'nost' v Rossii i za rubezhom [Islamic party "Hizb-ut-Tahrir" and its activities in Russia and abroad]. In: Pozitsii filosofii v sovremennom obshestve. Materiali vserossiyskoy nauchnoy konferentsii [Positions of philosophy in modern society. Materials of the All-Russian scientific conference]. Yekaterinburg. May 19-20. Pp. 104–109.

Muallif haqida ma'lumot:

ELMIRZAYEV Farrux Yo'lchiboyevich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi. E-mail: farruh_uz@inbox.ru